



O'ZBEK ADABIY TILINING SO'Z BOYLGINI YIG'ISH, TAVSIFLASH VA
TIZIMLASHTIRISH MASALASI

THE ISSUE OF COLLECTION, DESCRIPTION, AND SYSTEMATIZATION OF
THE VOCABULARY OF THE UZBEK LITERARY LANGUAGE

Yakubova Gulchexra Ziyatovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi.

Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi

gyakubova5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10364965>

<https://orcid.org/0009-0005-8706-2785>

Annotatsiya. O'zbek adabiy tilining so'z boyligini yig'ish, tavsiflash va tizimlashtirish lug'atning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu jarayon tilning leksik tuzilishini aniqlash, so'zlarning ma'no va qo'llanilish doirasini belgilash, shuningdek, adabiy til me'yorlarini mustahkamlash va barqarorlashtirishdan iboratdir. Lug'at nafaqat so'zlarning ma'nolarini tushuntiribgina qolmay, balki ularning to'g'ri talaffuzi, grammatik shakllari va stilistik xususiyatlarini ham keltiradi, bu esa tilning to'g'ri ishlatilishiga yordam beradi. Ayni paytda, zamona talablariga ko'ra, lug'at nutq madaniyatini yuksaltirishga sezilarli hissa qo'shadi, chunki u o'quvchilar va foydalanuvchilarga adabiy tilning eng muhim qoidalarini o'rgatadi.

Kalit so'zlar. Lug'at, etimologik ma'lumot, illyustrativ misol, pometa, uslubiy ma'lumot, bargizub, stilistik xususiyat, til me'yorlari.

Abstract. The primary task of a dictionary is to collect, describe, and systematize the vocabulary of the Uzbek literary language. This process consists of determining the lexical structure of the language, defining the meaning and scope of use of words, as well as strengthening and stabilizing the norms of the literary language. The dictionary not only explains the meanings of words but also provides their correct pronunciation, grammatical forms, and stylistic features, which helps in the correct use of the language. At the same time, according to the requirements of the time, the dictionary makes a significant contribution to improving the culture of speech, as it teaches students and users the most important rules of the literary language.

Keywords. Vocabulary, etymological information, illustrative example, punctuation mark, methodological information, leaf, stylistic feature, language norms.

Kirish. Fitonimlarning leksikografik talqinida ham ularni ko'rishimiz mumkin. Izohli lug'atlardagi lug'at maqolasi quyidagi qismlardan iborat: 1) bosh so'z; 2) etimologik ma'lumot; 3) grammatik va uslubiy ma'lumotni qayd etuvchi maxsus pometa; 4) izoh; 5) illyustrativ misol; 6) illyustrativ misol manbasi. Har bir qism haqida qisqacha ma'lumot berish bilan birga, fitonimlar bosh so'z sifatida tanlangan lug'at maqolalari tahlili bilan



fikrimizni davom ettiramiz. Lug‘at maqolasida izohlanadigan har bir so‘z bosh so‘z deyiladi. Bosh so‘z umumiste‘moldagi so‘zlardan ham, chegaralangan leksikadan ham tanlab olinishi mumkin. Hozirgi o‘zbek tilida umumiste‘molda bo‘lgan, adabiy tilga oid mustaqil, yordamchi va oraliq turkum so‘zlari, shuningdek, so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari bosh so‘z sifatida tanlanishi mumkin. Chegaralangan leksikadan ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan, darslik va ilmiy-ommabop uslubda faol qo‘llanadigan terminlar, dialektal leksika birliklarida fitonimlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, *anor, olma, apelsin, uzum, nok, tok, shaftoli, g‘o‘za, tarvuz, qovun, banan, xurmo, terak, baqaterak, gujum, chinor, o‘t, maysa, qovoq, jiyda, lola, atirgul, rayhon, nilufar, boychechak* kabi leksemalar uchun izohli lug‘atlarda maqolalar tayyorlangan bo‘lib, ular umumiste‘mol birliklari sifatida qayd etilgan. Chunki ularning izohida leksemaning botanik terminologiyaga mansubligi haqida ma‘lumot keltirilmagan. Shunday bo‘lsa-da, sanalgan leksemalar uchun tayyorlangan lug‘at maqolalarida fitonimlarning tashqi ko‘rinishi va boshqa xususiyatlari ilmiy uslubda shakllantirilgan. Masalan, shaftoli leksemasi uchun etimologik ma‘lumotdan so‘ng “issiq joylarda, janubda o‘sadigan, pushti gulli, uzunchoq bargli daraxt va uning mevasi”²⁹ izohi keltirilgan xolos. Ya‘ni izohda leksemaning botanika sohasiga oidligi haqida maxsus pometadan foydalanilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Xuddi shuningdek, fitonimlarning aksariyati sof ilmiy uslubda ko‘proq qo‘llanganligi uchun ular lug‘at maqolasiga terminologik ma‘no asosida kiritilgan. Shu bilan birga, chegaralanishning hududiy belgilari asosida shakllangan leksik birliklar ham izohli lug‘atlarda bosh so‘z sifatida tanlangan. Jumladan, *baliqko‘z, angishvonagul, baliqqiyg‘ir, baqasalla, baqayaproq, barginozik, bedanatut, begimsuydi, bakabarmoq, betagabo‘z, beshurug‘, bolquray, boldirqora, boboyi, boboshayxi* kabi fitonimlar izohida shunday holatni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *baqasalla* leksemasining izohida so‘zning botanik terminologiyaga mansubligi haqida ma‘lumot beruvchi maxsus pometadan (*bot.*) foydalanilgan. Leksema izohida etimologik ma‘lumot keltirilmagan. Chunki leksema o‘z qatlam birligi hisoblanadi. Leksema izohi ham ilmiy uslubda shakllantirilgan: “Qalpoqchali zamburug‘larning yeb bo‘lmaydigan zaharli turi”³⁰. Xuddi shuningdek, *baqato‘n* leksemasi izohida ham maxsus leksika birligi ekanligi bayon qilingan.

Natijalar va muhokama. Ma‘lumki, izohli lug‘atlarning eng muhim qismi bosh so‘z izohi qismi hisoblanadi. Leksema mohiyati haqidagi asosiy ma‘lumot aynan izoh qismida beriladi. Grammatik, uslubiy va etimologik ma‘lumotlar ham izohning mohiyatini to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi. Lug‘at maqolasini yakunlab beradigan illyustrativ misollar esa izohning to‘g‘riligini dalillashga qaratiladi. Shu sababli izohli lug‘atlarning bosh so‘z izohini ifodalovchi qismini shakllantirishga mas‘uliyat bilan yondashiladi. Fitonimlar bosh so‘z sifatida tanlangan lug‘at maqolalarida izoh qismi ko‘proq ilmiy uslubda shakllantiriladi. Bu qismda tasviriy matn turidan keng foydalaniladi. Leksemani ifodalovchi bir nechta so‘z

²⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.568.

³⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.277.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bo‘lgan o‘rinlarda uning sinonimlari ham izoh sifatida qo‘llanadi. Umuman, fitonimlar izohi so‘z, so‘z birikmasi yoki gap sifatida shakllantirilishi mumkin. Izohning mukammalligi, foydalanuvchi uchun tushunarli bo‘lishi umuman lug‘at maqolasining muvaffaqiyatli hosil qilinganligini anglatadi. Masalan, *baqayaproq* fitonimini izohlash uchun izohli lug‘atlarda birgina leksema – *bargizubdan* foydalanilgan. Chunki leksema izohi aynan *bargizub* leksemasi izohiga (yirik bargli, kalta poyali, gullari mayda ko‘p yillik o‘t va uning xalq tabobatida dorivor sifatida ishlatiladigan bargi) yo‘naltirilgan. Bu ikkinchi leksemaning o‘zbek tilida muloqot qiluvchilar uchun ko‘proq tanish ekanligidan dalolat beradi. *Bargizub* va *bargiyaproq* leksemalarining o‘zbek tilida leksik dublet maqomidagi sinonim ekanligini foydalanuvchi *ayn.* pometasidan bilib olishi mumkin. Ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda fitonimlar izohida ularning muayyan ot ekanliklari tufayli tasviriy matndan foydalanish holati kuzatiladi. Ularning xususiyatlari ham tasviriy matn asosida shakllantiriladi. O‘simlikning har bir qismi alohida birikmalar bilan izohlanadi. Jumladan, bargi, tanasining tuzilishi, mevasining rangi, ta’mi, insonga ta’siri, geografik tarqalishi va hokazo. Sanalganlar fitonim leksemaning izohidagi o‘ziga xoslikni ta’minlaydi.

Fitonimlarning izohli lug‘atlardagi talqinida illyustrativ misollar ham muhim o‘rin tutadi. “Illyustrativ misollar bosh so‘zning aytilgan talablar asosida kiritilganligini, unga qo‘yilgan grammatik va uslubiy belgilarning to‘g‘riligini, izohlanuvchi birlik ma’nosi (ma’nolari) ning to‘g‘ri, aniq belgilanganligini, nihoyat, har bir ma’noga berilgan izohning to‘g‘riligini tasdiqlash uchun keltiriladi”³¹. Ya’ni illyustrativ misollar lug‘at maqolasining me’yoriy tayyorlanganligini jonli nutqdagi misol yordamida dalillaydi. Qayd etish lozimki, lug‘at maqolasining bu qismi barcha izohlar uchun ham qo‘llanavermaydi. Ba’zi izohlar tasdiqlashni talab qilmaydi. Illyustrativ misollar ham birikma va gap shaklida bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga ba’zi leksemalarning izohini dalillash uchun bir nechta illyustrativ misol keltirilishi mumkin. Masalan, *marvartak* fitonimi uchun berilgan izohni tasdiqlashda ikki illyustrativ misoldan foydalanilgan:

“*Bolalar yerdan joy topolmay, marvartak tutlarga chiqib olganlar. M.Ismoilij, Farg’ona t.o. Farg’onaliklar marvartak, toshkentliklar balx tuti, deb atashadi uni. “Mushtum”*”³².

Xulosa va takliflar. Demak, o‘zbek tilida yaratilgan izohli lug‘atlar leksikografiyaning mumtoz namunalari asosida tayyorlangan, deyishimiz mumkin. Lug‘at maqolalarida bosh so‘z izohidan tashqari, grammatik, uslubiy va etimologik ma’lumotlar ham beriladi. Izohni dalillash uchun keltirilgan illyustrativ misollar XX va XXI asrda nashr qilingan badiiy adabiyot namunalari va matbuot materiallaridan olingan. Fitonimlarning leksikografik talqinida ham sanalgan jihatlar saqlanadi. Shunday bo‘lsa-da, fitonimlarning izohli lug‘atlarda berilishida tasviriylikning kuchliligi, matnning ilmiy uslubda shakllantirilishi, illyustrativ misollarning ko‘proq ilmiy manbalardan olinishi kabi o‘ziga xosliklar mavjud.

³¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.26.

³² Ko‘rsatilgan manba. – B.117.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.568.
2. Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq NMAK, 2001. – 336 b.
3. Нетяго Н.В., Дюзенли М.В. Лексикология современного русского языка. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2016. – С.66. – 104 с.
4. Смирнова В. Цветок в русской лирике начало XIX века. Известия УрГУ. – Москва, 2000. №17. – С.113-120.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Университет, 2000. – 424 б.
6. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент: “Ҳамидов Н.Ҳ.” матбаа корхонаси, 2008. – 100 б.
7. Эски туркий битигларнинг ўрганилиши: бажарилган ва бўлғуси ишлар. Илмий йигин ёзмалари. – Тошкент: ТДШУ, 2024. – 240 б.
8. Менглиев Б. ва бошқ. 80/20: Тил, адабиёт, таълим. – Тошкент: Dimal, 2024. – 204 б.

